

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14003721>

QADIMGI TURKIY TILLARNING MORFOLOGIK TASNIFI

Ikhbol Shamsudinova

Eshdavlatova Lolaxon

Ko‘charova Nilufar

Termiz davlat universiteti talabaları.

Annotatsiya: Maqolada qadimgi turkiy tillarning morfoloyiyasi, grammatic kategoriyalari, agglutinativ tabiat, hozirgi o‘zbek adabiy tilidan farqli jihatlari tasnif qilingan.

Tayanch so‘zlar: Morfologiya, ot , fe’l , ravish , so‘z turkum , olmosh, mustaqil so‘zlar, yordamchi so‘zlar, agglutinativ, zamon, turk-mo‘g‘il-tangus, tillarning chatishuvi ,oltoy nazariyasi.

Qadimgi turkiy til morfologik tip jihatdan agglutinativ tildir. So‘z formalari so‘zning negiziga maxsus qo‘sishchalarini muayyan tartibda qo‘sish yo‘li bilan yasaladigan tillarga agglutinativ til deb ataladi.Ammo qadimgi turkiy tildagi morfemalar hozirgi o‘zbek adabiy tili va singormanizmni yo‘qotgan shevalardan singarmonistik variantlarning borligi bilan farqlanadi. Lekin bu so‘z morfologik farq bo‘lmay, fonetik farqdir. Hozirgi o‘zbek adabiy tili morfoloyiyasidan qadimgi turkiy til morfologiyasining umumiyligi farqi quyidagilardan iborat:

1. Hozirgi zamon morfemalari qadimgi turkiy tildagiga nisbatan miqdoran ko‘p va mazmunan boy
2. Hozirgi o‘zbek tilida yo‘q bo‘lgan yoki alohida element sifatida o‘qilmaydigan morfemalar ham bor
3. So‘z va forma yasovchi chet tili morfemalari yo‘q

4. Murakkab morfemalar juda kam

Turkiy tillardagi qadimiy morfologik shakllar tahlil qilinganda oltoy nazariyasidagi fikrlar, ma'lum ma'noda, asoslangandek bo'ladi. Turk-mo'g'ul-tungus aloqalari morfologiyaning hamma bo'limlarida ko'rindi. Bu uch guruhg'a mansub tillar uchun umumiyo bo'lgan morfologik ko'rsatkichlar to'liq aniqlangan emas (ayrim turkiy tillarda hozirgi kelasi zamon sifatdoshi, mo'g'ul tillaridagi ravishdosh, tungus-manchjur tilidagi hozirgi zamon sifatdoshi affikslari hamda o'rin va yo'naliш bildiruvchi **-ra**, **-ru** qo'shimchalarini hisobga olmaganda).

Qadimgi turk va mo'g'ul tillaridagi morfologik munosobatlarning o'xshash va farqli tomonlarini quyidagicha umumlashtirish mumkin: Turk-mo'g'ul tillari uchun umumiyo bo'lgan morfologik ko'rsatkich sifatida o'rin kelishi -**da**, jo'naliш kelishi -**a**, harakat nomi -**ku**, shaxs oti -**chi**, o'rin-joy belgisini bildiruvchi -**daki**, ot yasovch; -**m**, -**vul**, fe'l yasovchi -**la** qo'shimchalari xarakterlidir.

Sifat darajalarining qadimgi turkiy tildagi *up-urun* (oppoq), *kop-kok* (ko'm-ko'k), *sum-sucug* (juda shirin), *qap-qara* (nihoyatda qora) shakllari mo'g'ul tilidagi *sav-sayan* (oppoq), *ib-ilayan* (qip-qizil), *koa-koke* (ko'm -ko'k); **buryatcha dav-daxap** (oppoq), *iv-ilan* (qip-qizil), *xav-xara* (qop-qora) shakllariga mos keladi.

Turkiy tillarda ham mo'g'ul tillarida ham **alip kordi**, **ahp ketti**, **jazip bardi** kabi ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalari uchraydi. Turkiy va mo'g'ul tillari o'rtasidagi moslikni **qirg'iz**, **tuva**, **yoqut** tillariga oid quyidagi faktik misollar orqali ko'rish mumkin. Oltoy tillari qarindoshligiga oid fikrlar quyidagicha umumlashtirilgan:

1. **Turkiy-mo'g'ul-tungus-manchjur** tillaridagi aloqadorlik morfologiyaning barcha bo'limlarida kuzatiladi: masalan, **-(i)d** ko'plik qo'shimchasi: *torin* (ot)- *torid* (otlar), *valyaqip* (shahar) *valyad* (shaharlar); *noxor* (o'rtoq) - *noxod* (o'rtoqlar); *tuyal* (buzoq)- *tuyad* (buzoqlar) va h.k.

2. Aniq morfologik o'xshashliklar tahlili turk-mo'g'ul-tungus-manchjur tillariga xos qadimiy shakllarni tiklash imkonini beradi. Tillardagi parallellik morfologik elementlarning bir tildan ikkinchi tilga o'tishi natijasida yuzaga kelgan.

Tillarning chatishuvi va o'zaro aloqasida uch nuqtayi nazar farqlanadi:

Birinchi qarash tarafdlorlari (**A.Shleyxer. M.Myuller, qisman A.Meye**) bir til tizimining bir qancha tizimlardan iborat ekanligini istisno qilgan holda, tillar chatishuvini inkor etadilar.

Ikkinci qarash tarafdlorlari (**G.Shuxardt, V.Pizani, Dj. Bonfante** va boshqalar) uchun tillar chatishuvi hech qanday to'siq bilmaydigan doimiy va keng ko'lamli jarayon.

Uchinchi qarash tarafdlorlari (**I.V.Boduen-de-Kurtene, V.A. Bogoroditskiy, L.V.Sherba, B.Y. Vladimirsov, A.Rosetti**) nisbatan asosli fikrga ega bo'lib, tillar chatishuviga geografik, madaniy yaqinlik, savdo aloqalari, qabila va xalqlarning munosabati asosida yuzaga keladigan real tarixiy hodisa deb qarashadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki , qadimgi turkiy til agglyutinativ til bo'lishiga qaramay ba'zi o'rinnlarda flektiv til xususiyatlari ham uchraydi. Qadimgi turkiy tildagi morfemalar hozirgi o'zbek adabiy tili va singormanizmni yo'qotgan shevalardan singarmonistik variantlarning borligi bilan farqlanadi. Qadimgi turkiy tillar morfologik xususiyatlari rang-barang bo'lishiga qaramay xalqlarning geografik, savdo aloqalar, madaniy yaqinlik tillar chatishuvlashishi natijasida barcha turkiy tillar morfoloyigasida umumiy o'xshash jihatlar uchraydi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Y.Abdurasulov Turkiy tillarning qiyosiy- tarixiy grammatikasi Tosh.,2009.
2. A.Rafiev Turkiy tillarning qiyosiy- tarixiy grammatikasi Tosh.,2004- yil
3. Dadaboyev H , Xolmanova Z. Turkiy tillarning qiyosiy- tarixiy grammatikasi Tosh .,2015-yil
4. Is'hoqov M, Sodiqov Q, Omonov Q.Mangu bitiglar - Tosh., 2009-yil.
5. Serebrennikov B, Gadjieva N Sravnitelno- istorocheskaya grammatika tyurkskix yazikov M.,1986-yil